



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DIN ISHLARI
BO'YICHA
QO'MITA



TDi
TOURISM DEVELOPMENT
INSTITUTE

O'ZBEKISTON XALQARO
ISLOM SHUNOSLIK AKADEMIYASI



"JAHON VA MILLIY TURIZM RIVOJLANISHINING DOLZARB MASALALARI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI"

1-AN'ANAVIY XALQARO
ILMIY-AMALIY ANJUMAN



MATERIALLAR TO'PLAMI

2026-yil 20 may



Toshkent – 2026

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DIN ISHLARI BO‘YICHA
QO‘MITASI
O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM SHUNOSLIK AKADEMIYASI**

**“JAHON VA MILLIY TURIZM RIVOJLANISHINING DOLZARB
MASALALARI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI”**
mavzusidagi 1-an’anaviy xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari

Материалы 1-й традиционной международной научно-практической
конференции на тему:

**“АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И СОВРЕМЕННЫЕ
ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МИРОВОГО И НАЦИОНАЛЬНОГО
ТУРИЗМА”**

The Materials of the First Annual International Scientific and Practical
conference on the theme

**“RELEVANT ISSUES AND MODERN TRENDS IN THE
DEVELOPMENT OF GLOBAL AND NATIONAL TOURISM”**

2026-yil 20-may

Toshkent – 2026

oqimini ko'paytirish va turizm xizmatlari eksporti hajmini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, raqamli platformalar orqali xizmat ko'rsatish xarajatlari kamayib, boshqaruv samaradorligi ortmoqda.

O'zbekistonda elektron vizalar tizimi, "E-mehmon" platformasi va milliy turizm portallarining joriy etilishi turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Kelgusida sun'iy intellekt, "big data" va elektron tijorat texnologiyalarini turizm xizmatlariga keng tatbiq etish orqali sohaning iqtisodiy samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Shu sababli turizm sohasida raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, zamonaviy IT infratuzilmasini rivojlantirish hamda raqamli ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash mamlakat turizm tarmog'ining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muxammadamin MAMANOV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o'qituvchisi,
Azizaxon ABDUPATTOXOVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universitet talabasi

MILLIY TURIZM RIVOJLANISHINING USTUVOR YO'NALISHLARI VA BOZOR TARKIBIDAGI O'ZGARISHLAR

Annotatsiya. Mazkur maqola O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada madaniy-tarixiy turizm, ekoturizm va agroturizm, ziyorat turizmi, sanoat, geologik va ilmiy kabi yangi turizm turlari, tibbiy va ta'lim turizmi, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish, raqamlashtirish va marketing masalalari batafsil yoritilgan. Shuningdek, sohadagi asosiy muammolar – hududlar o'rtasidagi nomutanosiblik, raqamli to'lov tizimlarining yetarlicha rivojlanmaganligi, malakali kadrlar yetishmasligi va ularning yechimlari tahlil qilinadi. Maqola "O'zbekiston – 2030" strategiyasi va so'nggi yillardagi normativ-huquqiy hujjatlariga asoslangan holda, turizm sohasining iqtisodiyotdagi o'rnini mustahkamlash va xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, turizm sohasi, madaniy-tarixiy meros, ekoturizm, ziyorat turizmi, turizm infratuzilmasi, raqamlashtirish, yangi turizm turlari, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi.

Аннотация. Данная статья посвящена анализу приоритетных направлений развития туризма в Узбекистане. В статье подробно рассматриваются культурно-исторический туризм, экотуризм и агротуризм, паломнический туризм, новые виды туризма (промышленный, геологический, научный), медицинский и образовательный туризм, вопросы развития туристской инфраструктуры, привлечения инвестиций, цифровизации и маркетинга. Также анализируются основные проблемы отрасли – диспропорция в развитии регионов, недостаточное развитие цифровых платёжных систем, дефицит квалифицированных кадров – и предлагаются пути их решения. Статья основана на стратегии "Узбекистан – 2030" и последних нормативно-правовых актах. В заключении даны рекомендации по укреплению роли туризма в экономике и повышению его международной конкурентоспособности.

Ключевые слова: Узбекистан, сфера туризма, культурно-историческое наследие, экотуризм, паломнический туризм, туристская инфраструктура, цифровизация, новые

виды туризма, стратегия “Узбекистан – 2030”.

Abstract: *This article analyzes the priority directions for tourism development in Uzbekistan. It examines cultural-historical tourism, ecotourism and agro-tourism, pilgrimage tourism, new types of tourism (industrial, geological, scientific), medical and educational tourism, as well as tourism infrastructure development, investment attraction, digitalization, and marketing. The main challenges in the sector – regional imbalances, underdeveloped digital payment systems, and lack of qualified personnel – are also analyzed, along with possible solutions. The article is based on the “Uzbekistan – 2030” strategy and recent legal and regulatory documents. It concludes with recommendations to strengthen the role of tourism in the economy and enhance its international competitiveness.*

Keywords: *Uzbekistan, tourism sector, cultural-historical heritage, ecotourism, pilgrimage tourism, tourism infrastructure, digitalization, new types of tourism, Uzbekistan – 2030 strategy.*

Turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan va daromad keltiruvchi tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. Dunyoda ish bilan band aholining har o‘ninchisi ushbu sohada faoliyat yuritadi, har 20 ta sayyoh 1 ta bevosita turizm sohasida va 2 ta turizmga bog‘liq boshqa tarmoqlarda yangi ish o‘rinlarining paydo bo‘lishiga yordam beradi. Jahon turistik tashkiloti (UN Tourism) ma‘lumotlariga ko‘ra, agar 2023-yilda xalqaro sayyohlar oqimi 1,3 milliard nafarni tashkil etib, soha jahon YaIMning 9,1 foizini shakllantirgan bo‘lsa, 2024-yil yakunlariga ko‘ra xalqaro sayyohlar soni 1,5 milliard nafardan oshib, 2019-yilgi rekord ko‘rsatkichlarni to‘liq yangiladi.¹⁹⁵

Butunjahon sayohat va turizm kengashi (WTTC) tahlillari shuni ko‘rsatadiki, 2026-yilda turizmning jahon iqtisodiyotidagi ulushi o‘zining tarixiy cho‘qqisiga – 10 foizga yaqinlashishi (taxminan 11 trillion AQSh dollari) prognoz qilinmoqda.¹⁹⁶ Xususan, WTTC tahlillariga ko‘ra, 2026-yilda turizm sohasida band bo‘ladiganlarning umumiy soni 380 million nafarga yetadi, bu esa dunyodagi har to‘qqizinchi ish o‘rning aynan ushbu tarmoqqa to‘g‘ri kelishini anglatadi. Shuningdek, turizmga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita investitsiyalar hajmi 1,2 trillion AQSh dollaridan oshib, soha jahon YaIMga qo‘shadigan hissasini 10 foizga (taxminan 11,5 trillion AQSh dollari) yetkazadi.

Jahon miqyosidagi ushbu ijobiy tendensiyalar fonida O‘zbekistonda ham turizm sohasi jadal rivojlanmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar, xususan, viza rejimini liberallashtirish, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va tarixiy-madaniy meros ob‘ektlarini tiklash natijasida O‘zbekistonga tashrif buyuruvchi xorijiy sayyohlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Ayniqsa, ziyorat turizmi, ekoturizm va madaniy turizm yo‘nalishlarida sezilarli o‘shish kuzatilmoqda.

O‘zbekiston o‘zining noyob tarixiy-madaniy merosi, turli davrlarga oid me‘moriy yodgorliklari, rang-barang tabiiy landshaftlari hamda asrlar davomida shakllangan milliy an‘analari bilan Markaziy Osiyodagi eng jozibador turistik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda YuNESKoning Butunjahon merosi

¹⁹⁵ UNWTO. (2024). World Tourism Barometer. Vol. 22, Issue 1. World Tourism Organization. <https://doi.org/10.18111/wtobarometereng>

¹⁹⁶ World Travel & Tourism Council. Global tourism to generate \$12 tn in 2026. // Daily FT. – 2026. – 15 May. – URL: <https://www.ft.lk/front-page/Global-tourism-to-generate-12-t-in-2026-WTTC/44-791955>

ro'yxatiga O'zbekistonning to'rtta moddiy ob'ekti – Ichan qal'a (1990), Buxoro tarixiy markazi (1993), Samarqand – madaniyatlar chorrahasi (2001) va Shahrisabz tarixiy markazi – kiritilgan bo'lsa, nomoddiy meros ro'yxatida 9 ta element mavjud. Ushbu boy salohiyatni samarali ishga solish, zamonaviy turizm tendensiyalariga mos ravishda turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish va sohaga oid davlat siyosatining strategik ustuvorliklarini aniq belgilash bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Turizm sohasi nafaqat iqtisodiy o'sishning muhim omili, balki aholi bandligini ta'minlash, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishning samarali vositasidir. O'zbekistonda so'nggi yillarda turizmga oid qator qonun hujjatlari, strategiyalar va infratuzilma loyihalari qabul qilindi. Ushbu maqolada aynan mana shu yo'nalishlar – madaniy-tarixiy turizmdan tortib, yangi turizm turlari (sanoat, geologik, ilmiy), raqamlashtirish, ekoturizm, ziyorat va tibbiy turizmga bo'lgan ustuvor yo'nalishlar tizimli tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolar va ularning yechimlari, 2030-yilgacha belgilangan strategik maqsadlarga erishish yo'llari ham yoritiladi.

1. O'zbekistonda turizm sohasiga oid asosiy statistik ko'rsatkichlar. O'zbekiston turizm sanoati so'nggi yillarda sezilarli o'sishni namoyish etmoqda. 1-jadvalda 2019-2025-yillar davomida asosiy turistik ko'rsatkichlarning dinamikasi keltirilgan.

1-jadval

O'zbekiston turizm sohasining asosiy ko'rsatkichlari¹⁹⁷

Ko'rsatkich	2019	2022	2023	2024	2025*
Xorijiy sayyohlar soni (mln. kishi)	6,7	5,2	6,9	8,2	10,0
Ichki sayyohlar soni (mln. kishi)	13,3	10,1	12,8	18,0	25,0
Turizm eksporti (mlrd. AQSH dollari)	1,7	1,2	1,9	2,8	4,0
Turizmning YaIMdagi ulushi (% da)	4,2	2,9	3,2	3,5	3,5

O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini transformatsiya qilish va raqamlashtirish jarayonlari bevosita turistik oqimning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda jami 11,7 mln. nafar xorijiy sayyohlarning tashrifi qayd etilgan bo'lib, geografiyaning 200 ta davlatgacha kengaygani sohaning eksport salohiyatini tasdiqlaydi. Xususan, 2026-yilning boshida kuzatilgan keskin o'sish sur'atlari diqqatga sazovor: yanvar oyidagi ko'rsatkich 950 278 nafarni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 40 foizlik sezilarli o'sishni namoyish etdi. Takomillashayotgan "O'zbekiston–2030" strategiyasi loyihasida chet ellik turistlar oqimini keskin oshirish asosiy vazifalardan biri etib belgilangan.

2024-yilda O'zbekistonga turistik maqsadlarda 8,2 million chet el fuqarosi tashrif buyurgan. Xorijiy sayyohlar oqimi 2023-yilga nisbatan 18,8 foizga oshgan. Ichki turizmga mahalliy sayyohlar soni 2024-yilda qariyb 18 million nafarni tashkil etgan.

¹⁹⁷ National Statistics Committee of Uzbekistan. Uzbekistan Sees 29% Increase in Tourist Arrivals in Early 2026 // The Diplomat. – 2026. – 2 June. – URL: <https://thediplomat.com/2026/06/uzbekistans-emergence-as-central-asias-mobility-hub/>

Sayyohlar tarkibining geografik tahlili shuni ko'rsatadiki, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekistonga eng ko'p sayyohlar Tojikiston (1,6 mln), Qirg'iziston (1,6 mln), Qozog'iston (1,1 mln) va Rossiyadan (609,7 ming) kelgan. Uzoq xorij mamlakatlari orasida Turkiya (84,3 ming), Xitoy (50,4 ming), Hindiston (48,6 ming) va Janubiy Koreya (32,6 ming) yetakchi o'rinlarni egallaydi.

2024-yilda sayyohlar soni bo'yicha eng samarali oylar iyul (1,12 mln), avgust (1,09 mln) va sentyabr (0,98 mln) bo'lgan. Tashrif buyurgan 8,2 million xorijiy sayyohning 50,2 foizi erkaklar, 49,8 foizi ayollar tashkil etadi.

Statistik tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda turizm sanoati COVID-19 pandemiyasidan keyin barqaror tiklanish va jadal o'sish bosqichiga o'tgan.

2. Turizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. Hozirgi kunda 11 milliondan oshgan xorijiy turistlar sonini 2030-yilgacha 20 million nafarga yetkazish, ayniqsa to'lov qobiliyati yuqori bo'lgan sayyohlar ulushini ko'paytirish rejalashtirilgan. Turizm xizmatlari eksporti hajmini yillik 6 milliard AQSH dollaridan oshirish ham strategik maqsad sifatida belgilangan. Bu natijaga erishish uchun turistik xizmatlar turlarini kengaytirish, raqobatbardosh mahsulotlar yaratish va xalqaro bozorlarda faol targ'ibot ishlarini olib borish muhim ahamiyatga ega. 2030-yilgacha turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha belgilangan strategik maqsadlarga muvofiq, turizmning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini amaldagi 3,5 foizdan 7 foizga yetkazish rejalashtirilmoqda. Mazkur ko'rsatkichga erishish sohaga keng ko'lamli investitsiyalarni jalb etish, xizmat ko'rsatish sifatini tubdan yaxshilash hamda yangi ish o'rinlarini yaratish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston turizmining asosiy ustunligi uning boy madaniy-tarixiy merosidir. Buyuk Ipak yo'lining chorrahasida joylashgan O'zbekiston hududida qadimiy me'moriy yodgorliklar, qal'alar, masjid va madrasalar o'zining betakrorligi bilan ajralib turadi.

2025-yil 18-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-217-son farmoniga muvofiq turizm sohasini 2030-yilgacha rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

– O'zbekistonning taniqli sayyohlik brendini yaratish va milliy sayyohlik mahsulotlarini ilgari surish;

– 2026–2028-yillarda Samarqanddagi eng muhim tarixiy obyektlarni bog'lovchi 6,6 km uzunlikdagi turistik marshrutni "Samarqand merosi" loyihasi doirasida tashkil etish;

– tarixiy-madaniy meros obyektlarini tiklash va saqlash ishlarini davom ettirish.

Hozirgi kunga kelib, YuNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatida O'zbekistonning 5 ta moddiy meros obyekti va 9 ta nomoddiy meros obyekti joy olgan.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ekoturizm va agroturizm sohalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2024-yil 12-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-21-son qaroriga asosan O'zbekistonning ekoturizm xaritasi ishlab chiqilgan.

Ekologik turizmni rivojlantirish tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ekoturizm

nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki mahalliy aholi bandligini ta'minlash va barqaror rivojlanishga hissa qo'shish imkonini beradi. 2025-yil aprel oyida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha yangi topshiriqlarda tog'li hududlarga piyoda chiqish (treking) uchun sayyohlik marshruti ruxsatnomasini my.gov.uz portali orqali 10 kunda berish tizimi joriy qilingan.

Ugam-Chotqol milliy bog'i (2016-yildan YuNESKO ro'yxatida) ekoturizmning yorqin namunasi sifatida 2024-2025-yillarda ziyoratchilar soni 40 foizga oshgan. Qishloq joylarda "mehmon uylari", dehqonchilik va hunarmandchilikka asoslangan agroturizm yo'nalishi ham rivojlanmoqda.

O'zbekiston islom madaniyatining muhim markazlaridan biri sifatida ziyorat turizmi uchun katta imkoniyatlarga ega. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ziyorat turizmi bo'yicha keladigan sayyohlar sonini 3 million nafarga yetkazish belgilangan.¹⁹⁸

2030-yilga borib tibbiyot va ta'lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan. Mamlakatda xususiy tibbiy klinikalar, diagnostika markazlari va xalqaro standartlarga javob beradigan sog'liqni saqlash muassasalarining soni ortib bormoqda. Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlaridagi xususiy universitetlar xorijiy talabalar sonining oshishiga olib kelmoqda.

Turizmi rivojlantirishda infratuzilmani yaxshilash asosiy omillardan biri hisoblanadi. 2030-yilga borib, mamlakatimizda turizm sektori doirasida:

- transport tarmog'ini rivojlantirish: xalqaro aeroportlar soni 18 tagacha yetkazilgan;
- yangi Toshkent aeroporti qurilishi 2030-yilga borib xorijlik sayyohlar sonini 25 millionga yetkazish imkonini yaratadi;
- hududlarda 7 ta xalqaro aeroport zamon talablariga muvofiq ta'mirlanmoqda;
- 51 ta xorijiy aviakompaniya O'zbekistonga doimiy qatnovlarni amalga oshirmoqda;
- turistik shaharlar o'rtasida transport aloqasini yaxshilash, ichki aviaqatnovlar sonini ko'paytirish va yo'lga ketadigan vaqtni kamida 3 barobarga qisqartirish rejalashtirilgan;
- 4 va 5 yulduzli mehmonxonalar sonini 2 barobarga oshirish.

2-jadval

Turizm infratuzilmasini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlari

Infratuzilma komponenti	2025-2026 (reja qilingan)
Yangi mehmonxonalar	108 ta
Oilaviy mehmon uylari	375 ta
Xostellar	123 ta
Kapsula va o'tov uylari	745 ta
Turizm qishloqlari va mahallalari	12 ta

¹⁹⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025-2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 15.05.2025 yildagi PF-87-son. // <https://lex.uz/docs/-7531559>

2025-yilda O‘zbekistonda yagona turizm platformasi ishga tushirilishi rejalashtirilgan bo‘lib, u orqali mehmonxonalarni bron qilish, sayohat paketlari, transport chiptalari va elektron viza berish imkoniyatlari yaratiladi. Hozirda my.gov.uz portali orqali turistik xizmatlarning 15 dan ortiq turi raqamli formatga o‘tkazilgan. Sayyohlar uchun vizasiz rejim 2025-yildan boshlab 30 ta davlatga tatbiq etilmoqda.¹⁹⁹

2024-yilda O‘zbekiston dunyoning yetakchi 16 mamlakatida bo‘lib o‘tgan 18 xalqaro yarmarkada milliy turizm stendi bilan ishtirok etdi. 12 ta davlat – Xitoy, Eron, Hindiston, Pokiston, Turkiya, Rossiya va boshqalar bilan turizm sohasida ikki tomonlama kelishuvlar imzolangan. Xalqaro tadqiqotlarga ko‘ra, O‘zbekiston so‘nggi yillarda dunyodagi eng tez o‘sib borayotgan turistik yo‘nalishlardan biri sifatida e‘tirof etilmoqda.

3. O‘zbekiston turizm sanoatining rivojlanishidagi tizimli muammolar. O‘zbekiston turizm sanoati so‘nggi yillarda sezilarli o‘shiga erishgan bo‘lsa-da, uning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Ushbu muammolarni quyidagi asosiy guruhlariga ajratish mumkin:

Birinchi, tashqi omillarning salbiy ta‘siri. Jahon turizm bozorining o‘zgaruvchanligi, global geosiyosiy beqarorlik, ayrim davlatlardan keluvchi sayyohlar oqimidagi nomutanosiblik, shuningdek, inflyatsion jarayonlar va transport-logistika zanjirlaridagi uzilishlar O‘zbekiston turizm sanoatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda. Xususan, ayrim an‘anaviy turistik bozorlardan (masalan, MDH va Yevropa mamlakatlari) tashriflar sonining o‘zgaruvchanligi prognozlash imkoniyatlarini qiyinlashtirmoqda.

Ikkinchi, ichki infratuzilma va xizmat ko‘rsatish sifatiga oid muammolar. Mehmonxona xo‘jaligi va umumiy ovqatlanish korxonalarini xizmatlarining xalqaro standartlar bilan to‘liq uyg‘unlashmaganligi, ayrim mintaqalarda avtomobil yo‘llari va kommunikatsiyalarning eskirganligi, shuningdek, turistik navigatsiya va axborot ta‘minotining yetarli emasligi sohaning investitsion jozibadorligini pasaytirmoqda. Bundan tashqari, turizm sohasida malakali kadrlar yetishmasligi – ayniqsa, chet tillarini biladigan, mijozlarga xizmat ko‘rsatish madaniyati va raqamli kompetensiyalarga ega mutaxassislar tanqisligi – xizmat sifatining oshishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Uchinchi, normativ-huquqiy va texnologik kamchiliklar. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 2024-yil sentabridagi qarori bilan sanoat, geologiya, ilmiy, ekstremal va boshqa yangi turizm turlarini joriy etish rejalashtirilgan bo‘lsa-da, 2025-yil aprel holatiga ko‘ra ushbu vazifalarning aksariyati amalda bajarilmagan. Ayniqsa, raqamli infratuzilma rivojida sezilarli kechikishlar mavjud. Jumladan, xalqaro miqyosda keng qo‘llanilayotgan PayPal, Apple Pay, Google Pay kabi to‘lov tizimlarining O‘zbekistonda rasman joriy etilmaganligi xorijiy sayyohlar uchun qulay to‘lov muhitining shakllanishiga to‘sqinlik qilmoqda. To‘lov tizimlarining integratsiyalashuvidagi bu kamchilik sayyohlar xarajatlarini optimallashtirish va

¹⁹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. // <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

ularning mamlakata bo'lgan ishonchini pasaytirmoqda.

To'rtinchidan, hududiy nomutanosiblik va ichki turizmning sust rivoji. Turistik oqimning asosiy qismi (taxminan 75-80 foizi) an'anaviy ravishda Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi yirik madaniy-tarixiy markazlarga to'plangan. Holbuki, Qashqadaryo (Katta qo'rg'on, Boysun tumani), Surxondaryo (Omonxona, Teshiktosh g'ori), Qoraqalpog'iston (Jayxun qo'riqxonasi, Sudochye ko'li) va boshqa chekka hududlar ulkan turizm salohiyatiga ega bo'lishiga qaramay, mazkur hududlarda turistik infratuzilma, xizmat ko'rsatish markazlari va reklama-targ'ibot ishlari yetarli darajada rivojlanmagan. Hududlarning o'ziga xos etnografik, ekologik va geografik xususiyatlaridan foydalanish imkoniyatlari to'liq ochilmagan.

4. *“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida turizm sektorining strategik ahamiyati va prognoz ko‘rsatkichlari.* O‘zbekiston Respublikasining uzoq muddatli rivojlanish konsepsiyasi – “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlari, jumladan, turizm sohasini kompleks rivojlantirish bo'yicha aniq maqsad va vazifalarni belgilab bergan. Ushbu strategik hujjat O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan bo'lib, u turizmni iqtisodiyotning strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilaydi.

Strategiya doirasida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha belgilangan asosiy maqsadli ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

1. Turizmning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish. Strategiyaga ko'ra, 2030-yilga borib turizm sohasining yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibidagi ulushi joriy 3,5 foizdan 7 foizga yetkazilishi rejalashtirilmoqda. Bu ko'rsatkich ikki baravar o'sishni anglatadi va turizmni iqtisodiyotning asosiy daromad keltiruvchi tarmoqlari qatoriga olib chiqadi. Taqqoslash uchun: jahon miqyosida turizmning YaIMdagi o'rtacha ulushi 9-10 foiz atrofida bo'lib, O'zbekiston ushbu strategik maqsadga erishgan taqdirda nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ham turizm salohiyati yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga qo'shiladi.

2. Turistlar oqimini ko'paytirish. Strategik prognozlarga ko'ra, 2030-yilga kelib mamlakatga tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlar soni 20 million nafarga, ichki turistlar soni esa 40 million nafarga yetkazilishi belgilangan. Ushbu ko'rsatkich 2024-yilgi darajaga nisbatan mos ravishda taxminan 2,5 va 2 baravar oshishini anglatadi. Ichki turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotganligi – aholining madaniy dam olish va rekreatsiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirish bilan birga, viloyatlar o'rtasida iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

3. Turizm xizmatlari eksportini kengaytirish. Strategiyada turizm xizmatlari eksporti hajmini 6 milliard AQSh dollaridan oshirish vazifasi qo'yilgan. Ushbu maqsad – xizmatlar eksportini diversifikatsiya qilish va valyuta tushumlarini ko'paytirish orqali to'lov balansining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Ayniqsa, ziyorat turizmi, tibbiy turizm va ekoturizm kabi yuqori qo'shilgan qiymatli yo'nalishlar eksport salohiyatini oshirishda asosiy vosita sifatida belgilanmoqda.

4. Turistik infratuzilmani rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish. Strategiyaga muvofiq, xususiy investitsiyalar hisobiga mehmonxona o'rinlari soni kamida 2 barobar ko'paytirilishi rejalashtirilgan. Bu turistik sig'imni oshirish va turistlar oqimining barqaror o'sishini ta'minlash uchun zarur shartdir. Shuningdek,

strategiyada “turizm mahallalari” instituti joriy etilishi va ularning soni 175 taga yetkazilishi belgilangan. Turizm mahallalari – bu ma’lum bir hududda turistik infratuzilmani kompleks rivojlantirish, servis standartlarini joriy etish va mahalliy aholini turizm faoliyatiga keng jalb qilish modeli bo’lib, u xalqaro tajribada “turizm klasterlari” yoki “turizm qishloqlari” konsepsiyasining mahalliy adaptatsiyasi hisoblanadi.

5. Strategik yo‘nalishlarning o‘zaro bog‘liqligi. Yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir: turistlar oqimining oshishi mehmonxona o‘rinlariga bo‘lgan talabni oshiradi, bu esa xususiy investitsiyalarni rag‘batlantiradi; investitsiyalar natijasida yangi turistik ob‘ektlar va servis markazlari tashkil etiladi; bu esa o‘z navbatida eksport salohiyatini oshiradi va YaIMdagi ulushning o‘shishiga olib keladi.

O‘zbekiston turizm sanoati so‘nggi yillarda amalga oshirilgan tizimli islohotlar natijasida qisqa muddatda sezilarli yutuqlarga erishdi. Xususan, 2024-yilda 8,2 million xorijiy sayyoh, qariyb 18 million ichki sayyoh va 2,8 milliard AQSh dollari hajmida turizm eksporti qayd etilgan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkichlar mamlakatning Markaziy Osiyo mintaqasidagi yetakchi turistik markazlardan biri sifatidagi mavqeyini mustahkamlamoqda. Sanoatning iqtisodiy samaradorligini oshirish, turistik infratuzilmani modernizatsiya qilish va xalqaro hamkorlik aloqalarini kengaytirish borasida muhim qadamlar tashlangan.

Biroq amalga oshirilgan tahlillar, shuningdek, sohada hal etilishi lozim bo‘lgan bir qator tizimli muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. Quyida asosiy xulosalar va ularga mos taklif etilayotgan tavsiyalar keltirilgan:

1. Yangi turizm turlarini joriy etish yetarli darajada tezlashtirilmagan. 2025-yilga kelib, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida va Hukumatning 2024-yil sentabrdagi qarorida belgilangan sanoat turizmi, geologik (geo) turizm, ilmiy turizm va harbiy turizm kabi yo‘nalishlar hali to‘liq ishlab chiqilmagan. Ushbu yo‘nalishlarning amaliyotga joriy etilishida normativ-huquqiy baza, infratuzilma va ixtisoslashgan kadrlar yetishmasligi kabi to‘siqlar saqlanib qolmoqda.

Tavsiyalar:

– har bir yangi turizm turi bo‘yicha alohida “yo‘l xaritasi” ishlab chiqish va unga mas‘ul ijrochilar, moliyalashtirish manbalari va natijaviy ko‘rsatkichlarni belgilash;

– sanoat va geologik turizm uchun pilot hududlarni (masalan, Olmaliq konlari, Navoiy sanoat zonasi, Qizilqum geologik poligoni) aniqlash va ularda ekskursiyalar tashkil etish bo‘yicha maxsus dasturlarni ishlab chiqish;

– ilmiy turizm doirasida ilmiy-tadqiqot institutlari, rasadxonalar va biologik stansiyalarni turistik obyektlar sifatida sertifikatlash tizimini joriy etish.

2. Investitsion mexanizmlar takomillashtirishni talab qiladi. Hozirgi investitsiya muhiti turistik infratuzilmani jadal rivojlantirish uchun yetarli darajada rag‘batlantiruvchi emas. Xususan, mehmonxona va turistik majmualar qurilishiga xususiy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ma‘muriy to‘siqlar, yer ajratish bilan bog‘liq muammolar va soliq imtiyozlarining cheklanganligi saqlanmoqda.

Tavsiyalar:

– turistik infratuzilma loyihalari uchun “yagona darcha” tamoyili asosida yer

ajratish va ruxsat berish tartibini soddalashtirish;

– mehmonxona qurilishi va rekonstruksiya uchun 5-7 yil muddatga yer solig‘i va mol-mulk solig‘idan to‘liq ozod qilish (noldan boshlangan loyihalar uchun);

– “Turistik mahallalar” va “turistik klasterlar” doirasida amalga oshirilgan xususiy investitsiyalarning 20-30 foizini subsidiyalash yoki kompensatsiyalash mexanizmini joriy etish;

– xorijiy investorlar uchun maxsus “Tourism Investment Visa” tizimini ishlab chiqish (investitsiya hajmiga qarab 3-10 yilgacha yashash va takroriy kirish vizasi).

3. Kadrlar tayyorlash tizimi xalqaro standartlarga to‘liq mos kelmaydi. Turizm sohasida chet tillarini biladigan, zamonaviy servis standartlari (ISO 18513:2021) bo‘yicha ishlay oladigan, raqamli texnologiyalarni qo‘llay oladigan malakali mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyoj yuqoriligicha qolmoqda. Ta‘lim dasturlarining amaliyotga yo‘naltirilganlik darajasi past, mehmonxona va turizm kompaniyalari bilan integratsiya yetarlicha rivojlanmagan.

Tavsiyalar:

– xalqaro turizm kompaniyalari (masalan, Hilton, Marriott, Accor) bilan hamkorlikda qo‘shma sertifikatlash dasturlarini ishlab chiqish;

– chekka hududlarda “aylanish asosida malaka oshirish markazlari” (mobile training hub) tashkil etish, bunda tajribali trenerlar bir viloyatdan ikkinchisiga o‘tib mahalliy kadrlarni o‘qitadi;

– turizm sohasidagi OTM va kollejlarda bitiruvchilari uchun majburiy 3 oylik “rezidentura” tizimini joriy etish (yirik mehmonxonalar va tur operatorlarida amaliyot bilan birga ishlash).

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar (turizmning YaIMdagi ulushi 7 foizga, xorijiy sayyohlar soni 20 millionga, ichki sayyohlar 40 millionga, turizm eksporti 6 milliard dollarga yetkazish) to‘liq amalga oshirilgan taqdirda, O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida nafaqat turizm bo‘yicha yetakchi davlatga aylanadi, balki xalqaro turizm xaritasida mustaqil va kuchli brend sifatida tan olinadi.

Yuqorida keltirilgan tavsiyalar tizimli ravishda va bosqichma-bosqich amalga oshirilgan taqdirdagina, O‘zbekiston turizm sanoati mavjud muammolarni bartaraf etib, belgilangan strategik marralarga erisha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. World Travel & Tourism Council. Global tourism to generate \$12 tn in 2026. // Daily FT. – 2026. – 15 May. – URL: <https://www.ft.lk/front-page/Global-tourism-to-generate-12-t-in-2026-WTTC/44-791955>.

2. UNWTO. World Tourism Barometer. Vol. 22, Issue 1. World Tourism Organization (2024). <https://doi.org/10.18111/wtobarometereng>

3. National Statistics Committee of Uzbekistan. Uzbekistan Sees 29% Increase in Tourist Arrivals in Early 2026 // The Diplomat. – 2026. – 2 June. – URL: <https://thediplomat.com/2026/06/uzbekistans-emergence-as-central-asias-mobility-hub/>

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko‘paytirish va turistik xizmatlar ko‘lamini jadal kengaytirish orqali

turizmning iqtisodiyotdagi oʻrni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni, 15.05.2025-yildagi PF-87-son. // <https://lex.uz/docs/-7531559>

5. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi Oʻzbekiston – 2030 strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-158-son Farmoni. // <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

6. UNWTO. Guidelines for the Development of Gastronomic Tourism. – Madrid: World Tourism Organization, 2019.

7. McKinsey Global Institute. The future of tourism: Bridging the labor gap, enhancing customer experience. McKinsey & Company (2024). // <https://www.mckinsey.com/industries/travel-logistics-and-infrastructure/our-insights>

Malika TOSHPULATOVA,
Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti tayanch doktranti,
Oʻzbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasida stajyor oʻqituvchisi

OʻZBEKISTONNING JAHON SAVDO TIZIMIGA INTEGRATSIYALASHUVI SHAROITIDA MILLIY TURIZM BOZORIDA TARKIBIY OʻZGARISHLAR TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu tezisda Oʻzbekiston iqtisodiyotining jahon savdo tizimiga, xususan, Jahon savdo tashkiloti (JST) va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YEOT) kabi koʻp tomonlama va mintaqaviy integratsiya tuzilmalariga qoʻshilishi sharoitida milliy turizm bozorida yuz berayotgan tarkibiy transformatsiyalar tahlil qilinadi. Muallif tomonidan integratsiya jarayonlarining xizmatlar eksporti tarkibiga makroiqtisodiy taʼsiri, sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va raqobat muhitini liberallashtirish masalalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit soʻzlar: turizm, Jahon savdo tashkiloti, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi, xalqaro integratsiya, makroiqtisodiy taʼsir.

Аннотация. В данной работе анализируются структурные преобразования, происходящие на национальном туристическом рынке в контексте интеграции экономики Узбекистана в мировую торговую систему, в частности, в многосторонние и региональные интеграционные структуры, такие как Всемирная торговая организация (ВТО) и Евразийский экономический союз (ЕАЭС). Автор научно обосновывает макроэкономическое влияние интеграционных процессов на структуру экспорта услуг, привлечение иностранных инвестиций в сектор и либерализацию конкурентной среды.

Ключевые слова: туризм, Всемирная торговая организация, Евразийский экономический союз, международная интеграция, макроэкономическое влияние.

Abstract. This thesis analyzes the structural transformations taking place in the national tourism market in the context of the integration of the Uzbek economy into the world trade system, in particular, into multilateral and regional integration structures such as the World Trade Organization (WTO) and the Eurasian Economic Union (EEU). The author scientifically substantiates the macroeconomic impact of integration processes on the structure of service exports, the attraction of foreign investment in the sector, and the liberalization of the competitive environment.

Keywords: tourism, World Trade Organization, Eurasian Economic Union, international integration, macroeconomic impact.

**“JAHON VA MILLIY TURIZM RIVOJLANISHINING DOLZARB
MASALALARI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI”**

mavzusida 1-anʼanaviy xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari

Sahifalovchi: Kamoliddin Jahongirov
Muharrir: Samadjon Mamurov, Uktam Jiyanov

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026-yil
Bichimi 60x84 1/8. «Times New Roman»
garniturada raqamli bosma usulda chop etildi.
Shartli bosma tabogʻi 19. Adadi 100. Buyurtma № 20-11.
Tel.: (99) 832 99 79; (99) 817 44 54.
«IMPRESS MEDIA» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Qushbegi koʻchasi, 6-uy.

